



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Kobilova Shaxnoza
Xudayshukurovna

*ChDPU Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrası. Pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD) kabilovashaxnoza4@gmail.com*

UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA “DIFFUZ INKLYUZIYA” YONDASHUVINING REALIZATSIYA ETISHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz inklyuziv ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar ijtimoiylashuvi va integratsiyasini barqarorlashtirishga qaratilgan muvofiq jarayonni yuzaga chiqarishda muallif tomonidan ilgari surilgan yangicha, zamonaviy va nostandar yondashuv ya'ni “Diffuz inklyuziya” ilmiy nazariyasining pedagogik-psixologik jihatlari hamda samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz inklyuziv ta'lim, “diffuziya”, “Diffuz inklyuziya”, imkoniyati cheklangan o'quvchi, ijtimoiylashuv, amaliy ko'nikma, avtonomiyani yumshatish, o'quvchilararo harakat va muloqot koordinatsiyasi muvofiqlashuvi.

Аннотация: В данной статье предложен новый, современный и нестандартный подход, а именно педагогико-психологическая теория научной теории «Диффузная инклюзия», выдвинутая автором в раскрытии соответствующего процесса, направленного на повышение качества и эффективности непрерывного инклюзивного образования. Выделены аспекты и эффективность стабилизации социализации и интеграции студентов с ограниченными возможностями здоровья.

Ключевые слова: Непрерывное инклюзивное образование, «диффузия», «Диффузионная инклюзия», обучающийся с ограниченными возможностями,



социализация, практические навыки, смягчение самостоятельности, координация межстуденческих движений и координация общения.

Annotation: This article proposes a new, modern and non-standard approach, namely the pedagogical and psychological theory of the scientific theory “Diffuse Inclusion”, put forward by the author in revealing the corresponding process aimed at improving the quality and effectiveness of lifelong inclusive education. The aspects and effectiveness of stabilizing the socialization and integration of students with disabilities are highlighted.

Key words: Continuous inclusive education, “diffusion”, “Diffusion inclusion”, student with disabilities, socialization, practical skills, mitigation of independence, coordination of inter-student movements and coordination of communication.

Kirish:

Jamiyatimizda mavjud ta’lim standartining tahlili shuni ko’rsatdiki, unda imkoniyati cheklangan o’quvchilarning xavfsiz hayoti va unga tayyorgarlik to’g’risida fanlararo tarqoq individual ma’lumotlar mavjud bo’lib, bir tizimga muvofiqlashmagan hamda amalga oshirish mexanizmi nazariy asos bilan chegaralangan. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o’quvchilarning o’quv faoliyatdagi shaxsiy xavfsizligi, cheklangan hayotiy faoliyat sharoitida ularni ruhiy va jismoniy sog’lig’ini saqlash hamda ijtimoiy moslashuvni yaxlit amaliy mexanizmi mavjud emas.

Inklyuziv ta’limdagi bu kabi muammoni fanlarning umumiy ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish, xavfsiz hayot faoliyati komponenti modullarini ajratish, fanlararo integratsiyasini hisobga olgan holda amaliy faoliyat nuqtayi nazaridan “Hayot xavfsizligi” kursi bilan birlashtirish orqali bartaraf etish mumkin.

Mazmunan olib qaraydigan bo’lsak, bu jarayon har bir imkoniyati cheklangan o’quvchi uchun o’quv materialining mantiqiy to’ldirilgan qismini bajarish uchun zarur bo’lgan kompetensiyani shakllantiradi. Shuningdek, ushbu o’quv materialda imkoniyati cheklangan o’quvchilarning atrof-muhitda va kasbiy faoliyatida hayotiy xavfsizligi to’g’risida to’liq ma’lumot shakllanadi. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar hayoti xavfsizligini o’rgatishda integrativ-modulli yondashuvdan foydalanish, inklyuziv ta’lim mazmunining tashkiliy-metodik jihatdan yanada oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

L.R.Muminova, Ye.T.Sokolova, M.A.Sattorova, Sh.X.Kobilova
Ye.N.Kutepova, I.Yu.Levchenko, S.D. Zabramnaya va Ye.R. Yarskaya-Smirnovalarning ilmiy yondashuv va tadqiqot ishlarida integrativ-modulli yondashuv, innovatsion ta’lim texnologiyasi tamoyillari, fanlararo integratsiya, ta’lim samaradorligini oshirish, imkoniyati cheklangan o’quvchilarni o’quv faoliyatdagi



faolligi, atrof-muhitni o'rganish, ta'lim olish jarayonida kommunikatsion munosabatlar barqarorligini ta'minlagan hoda, hayot xavfsizligini pedagogik-psixologik ta'minlash imkoniyatini oshirib, ijtimoiy moslashishni tezlashtirish omili bo'lib xizmat qilishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Integrativ-modulli yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyasi tamoyillari orqali amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, didaktik birlikni hamda fanlararo integratsiyani taqozo etib, maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakli va usullari, shuningdek, ta'lim samaradorligi orqali ifodalangan ta'lim tizimini keng yoritishni ta'minlaydi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga integrativ-modulli yondashuv orqali "Hayot xavfsizligi" kursini o'qitish o'quv faoliyatda samaradorlikka erishish, atrof-muhitni o'rganish, maktab muhitida kommunikatsion munosabatlarni barqaror yo'lga qo'yish, shaxsiy hayot xavfsizligini pedagogik-psixologik ta'minlash hamda ijtimoiy moslashishni tezlashtirish omili bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Analiz va sintez, prognozlashtirish, rejalashtirish, sinergetik, mavhumlashtirish va bifurkatsion metodlaridan kelib chiqib, uzluksiz inklyuziv ta'limda "Hayot xavfsizligi" kursini o'qitish orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'quv faoliyatda pedagogik-psixologik samaradorlikka ega bo'lgan yangicha va nostandar yondashuv ya'ni «Diffuz inklyuziya» jarayonini amaliyotga kirish mumkin.

Mazkur yondashuv, o'quvchilarni ma'lum muhitda moslashish qiyinchiliklari va noaniq sharoitida aniq harakat qilish amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sub'ekt uchun ma'lum darajadagi avtonomiyani yumshatishga olib kelib, vaqt nuqtai nazaridan o'z hayot koordinatalarini barqaror muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ambivalentlikka toqat qilishning pasayishi, o'zini o'zi ajratish, pissemistik kayfiyat ustun bo'lgan odamlar hamda ma'lum negativilarga dosh bera olmaydigan "mo'rt" shaxslarni ijtimoiy faolligini oshiradi.[6]

Biz uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida diffuz jarayonidan maqsadli foydalanish lozim degan ilmiy farazni, oldingi ilmiy tadqiqot ishlarimizda ilmiy-amaliy jihatdan tadqiqi etib, «Diffuz inklyuziya» yondashuv nazariyasini amaliyotga joriy etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etdik.

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi ta'lim klasteri vositasida imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada samaradorlikka erishishda tub burilish yasashi mumkin degan ilmiy gipotezani ilgari surib, uning ijtimoiy pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil etdik.

Tahlil va natijalar :



Uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida «Diffuz inklyuziya» yondashuvining ijtimoiy pedagogik-psixologik xususiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi - imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'zini shaxs sifatida idrok etishda yuzaga keladigan ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lishi, boshqalar haqida negativ taassurot va idrok etishdagi defektlarni ongida dominant bo'lib qolishi, birgalikda o'yin, o'quv va kasbiy faoliyat olib borish jarayonida shaxsiy tashabbus va integratsiyaning yetishmasligi hamda mavjudlikni boricha qabul qilaolmaslik kabi jarayonlarda irotsionallikni inkor etib, ratsionallikni ta'minlaydi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi- kuchli maqsad, qadriyat va e'tiqod hamda keskin faoliyatlarni inkor etadi. U minimaldan maksimalga yo'naltirilgan evalyusion dinamik xususiyatga ega bo'lib, mavjud jarayonni real in'ikos etishni taqozo etgan holda, uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni "yetuk shaxs" sifatida o'zlarini idrok etish imkoniyatini ta'minlaydi.

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi – uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida ijtimoiy pedagogik-psixologik muhit barqarorligi, imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayot xavfsizligi hamda o'quv faoliyatida sog'lom va imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'zaro integratsiyasida "diffuz hodisasining molekulyar muammolari"ni bartaraf etib, kommunikativ bo'shliqni to'ldiradi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi – uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida sog'lom o'quvchilar tomonidan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'quv faoliyatda o'zaro hamkorlik jarayoni tezligini ta'minlash hamda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning uzluksiz tamoyilini yuzaga chiqaradi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi – uzluksiz inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qilib, ulardan ta'lim jarayonida nostandart pedagogik yondashuv va kreativlik qobiliyatini o'quv faoliyat turiga muvofiq olib borish hamda favqulodda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jarayonlarga nisbatan kasbiy mobillilik xususiyatini shakllantiradi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuv – uzluksiz inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarda vaziyatli ta'lim boshqaruvi kompetentligini shakllantirishga xizmat qilib, imkoniyati cheklangan o'quvchilar va sog'lom o'quvchilarni o'quv faoliyatda kommunikatsiya jarayoni va integratsiyasini yuzaga chiqarishda, ijtimoiy psixologik muhit hamda o'quvchilarni xususiyatlarini inobatga olgan holda, ijtimoiylashuv vaqt oralig'ini sekin, o'rta va tezlik jarayonlari nazoratini amalga oshirish malakasini shakllantiradi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuv – uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida moddiy va ma'naviy aloqalar tizimini muvofiqlashtirib, zamonaviy ta'lim madaniyati elementlarini shakllanishiga xizmat qiladi hamda o'quv faoliyatda tolerantlik omillarini shakllantiradi;


«Diffuz inklyuziya» yondashuv – uzluksiz inklyuziv ta’lim jarayonida o’quvchilar o’rtasida simpatik munosabatlarni “tashuvchi”, o’zaro yordam tushunchasini keng tarqalishi, ijobiy informatsiyalarni “uzatish”, o’zaro axborot almashinuv ko‘nikmasini shakllantirish hamda zaruriy vaziyatlarda tez harakat qilib tengdosh va boshqa shaxslarni noqulay vaziyatdan olib chiqish kompetentligini shakllantiradi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuv – uzluksiz inklyuziv ta’limda faoliyat olib borayotgan o’qituvchi va ota-onalar tomonidan o’zaro hamkorlik doirasida yuzaga keladigan harakat natijasi bo’lib, uzluksiz inklyuziv ta’limda tahsil olayotgan o’quvchilarning aqliy va jismoniy hamda ichki ruhiy muvozanat konsentratsiyasini ta’minlaydi;

«Diffuz inklyuziya» yondashuv – uzluksiz inklyuziv ta’limning ijtimoiy psixologik muhit barqarorligiga ta’sir o’tkazuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar hamda pedagogik bo’shliqni to’ldiruvchi uzluksiz harakatlar koordinatsiyasini muvofiqlashtirib boradi.

«Diffuz inklyuziya» yondashuvi – uzluksiz inklyuziv ta’limda tahsil olayotgan o’quvchini "o’ziga xoslik" konstruksiyasini ta’minlab, hayot davomida uning uzluksiz o’ziga xosligini namoyon etadi. Bu tushuncha qulay shart-sharoitda e’tiqod bilan faoliyatning mazmuni, yaxlitligi va maqsadga muvofiqligi bilan uyg’unlashib, sub’ektiv va ob’ektiv to’siqlarga qarshi turish kompetentligini shakllantiradi.

Inklyuziv maktabda «Diffuz inklyuziya» yondashuvning yo’nalganlik qoidasini o’quvchilar faoliyatiga transformatsiyasi



1-rasm. Uzluksiz Inklyuziv ta’limda “Diffuz inklyuziya” yondashuvini amalga oshirish mexanizmi va natija samardorligi.



“Diffuz inklyuziya” yondashuvning xususiyatlarini inklyuziv ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi va uni amalga oshirishning pedagogik-psixologik mexanizmi:

«Diffuz inklyuziya” yondashuvning metodikasi o‘zlashtirish va integratsiyani o‘z ichiga olib, imkoniyati cheklangan bolalarni o‘zlashtirishni yaxshilash uchun a’lochi o‘quvchilar bilan sinfda bir partada o‘tirtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda guruh bo‘lib ishlash jarayonida, bir jamoada bo‘lishini ta’minlash. Integratsiyasini yuzaga chiqarish uchun sinfdagi giperaktiv bolalar bilan bir partada o‘tirish va kommunikativ muloqot uchun shart-sharoit yaratish.

«Diffuz inklyuziya” yondashuvini amalga oshirishning pedagogik-psixologik mexanizmi o‘qituvchidan ta’lim jarayonida, sinfda sun’iy ravishda, tabiiylikni saqlab qolgan holda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni sinfdagi barcha bolalar bilan “shaxmat doskasidagi” toshlarni funksional vazifalarini nazarda tutgan holda bir partaga o‘tirishni tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda imkoniyati cheklangan o‘quvchi va sog‘lom bola o‘rtasida kommunikatsiya aloqalari o‘rnatiladi, o‘zaro adaptatsiya ko‘nikmalari shakllanadi, simpatiya paydo bo‘ladi, bir birini tushunish va hissiy qabul qilish tasavvurlari shakllanib dars mashg‘uloti va darsdan tashqari munosabatlarda ham o‘zaro to‘siqsiz munosabatlar amalga oshadi hamda har ikki tomonda ruhiy barqarorlikning yuzaga kelishi ta’minlanadi.

Xulosa vatakliflar :

Xulosa qilib aytganda, «Diffuz inklyuziya” yondashuvi nazariyasini, uzluksiz inklyuziv ta’lim amaliyotiga realizatsiya etilishi natijasida, imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim muhitiga integratsiyasi tezlashadi, sotsializatsiya jarayoni to‘siqsiz amalga oshadi hamda pedagogik ta’lim jarayonining sifat va samaradorligi ortadi. Ushbu jarayon, uzluksiz inklyuziv ta’lim muhitida sog‘lom ijtimoiy psixologik dunyoqarashni qaror toptirib, imkoniyati cheklangan bolalarda mavjud bo‘lgan ikkilanish, o‘zini o‘zi kamsitish, o‘z qobiliyati va iste’dodiga bo‘lgan shubhalarni bartaraf etib, sog‘lom bolalar bilan imkoniyat darajasida o‘quv faoliyatda raqoblashish ko‘nikmasini hamda jamiyatning barcha sohasida interatsiyalashish kompetentligini shakllantirib, uzluksiz inklyuziv ta’lim mazmuni jamiyat tomonidan to‘liq anglaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kobilova Sh.X. **Pedagogik innovatsion ta’lim klaster asosida xalq ta’limida inklyuziv muhitni yaratish yuzasidan ijtimoiy-pedagogik yondashuv** // Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendirio‘. №6/3.2022.-B.52-57.

2. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta’lim makonini barqarorlashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlarini muvofiqlashtirishning muammo va yechimlari // Ta’lim, fan va innovatsiya. 6-son, 2022.-B. 118-119.



3. Кутепова, Е. Н. Готовность педагога к деятельности в условиях инклюзивной практики // Е.Н. Кутепова, Ж.Н. Черенкова Инклюзивное образование: практика, исследования, методология // сборник материалов II междунар. науч.-практ. конф. – М., 2013. – С. 588- 592

4. Левченко И.Ю. Забрамная С.Д. Психолого-педагогическая диагностика развития лиц с ограниченными возможностями здоровья: учебник для студентов учреждений высшего профессионального образования. М.: Издательский центр «Академия», 2013. 336 с.

5. Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста (на материале узбекского языка): Автореф. дис. д-ра пед. наук.-Т.:1992.-23с.

6. Соколова Е.Т. Культурно-историческая и клинико-психологическая перспектива исследования феноменов субъективной неопределенности // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. - 2012. Вып. 2.

7. Sattorova M.A. Ta'lim klasteri muhitida ijtimoiy yo'nalish talabalarining inklyuziv tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish. Ped.fan.fal.dokt.(PhD).diss. - Chirchiq, 2022.

8. Ярская-Смирнова Е. Р. Инклюзивное образование детей-инвалидов //Е.Р. Ярская-Смирнова, И.И. Лошакова // Социологические исследования. – 2003.– № 5. – С. 100-106.